



KASBIY-PEDAGOGIK AXLOQNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYA VA O'YIN TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

Marjan Smatillayevna Janbayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti o'qituvchisi
janbaeva.m@cspi.uz

Qodirova M. Sh.

Tursunova E.Sh.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti I-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning axloqiy, ma'rifatli, yaxshi xulq egasi bo'lishi, o'z-o'zini muntazam ravishda axloqiy jihatdan tarbiyalab borishida tarbiya va o'yin texnologiyalarning ahamiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axloq, tarbiya, pedagog, tashxis, immanent, evristik, dogmatik, pragmatik, kollektivizm, axloqiy ong, e'tiqod, pedagogik jarayon, texnologiya.

O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega. Pedagogik faoliyatning bunday xususiyati - axloqdir. Axloq - bu ijtimoiy ongning bir shakli bo'lib, odamning xulqini, xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, boshqarib turuvchi qoidalar, prinsiplar, yo'l-yo'riqlar, mezonlar, me'yorlar, pand-nasihatlar majmuidan iborat sifatlar yig'indisidir. O'qituvchining pedagogik e'tiqodi - bu uning axloqiy bilimi, qarashlari jamiyatga, o'z kasbiga, o'quvchilar, kasbdoshlari va ota - onalarga munosabatida ta'lim-tarbiya vazifalarini bajarishda xulqining qat'iy qonun qoidaga aylantirishidir. Kasbiy pedagogik axloq - bu shaxsning axloqiy ongi singari, axloqiy bilimlarini egallash asosida hosil bo'ladi. O'qituvchining kasbiy axloqi uning hissiy kechinmalari, axloqiy ideallari va e'tiqodi bilan uzviy birlikda yaxlit holda shakllanadi. Pedagogik jarayonda muomala odobining tuzilishi juda murakkab. U pedagogik faoliyatda subyekt-obyekt munosabatlari shaklida ifodalanadi. Subyekt-obyekt munosabatlari muallim o'zining kasbiy burchini bajarayotganida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari bilan o'qituvchi o'rtasidagi aloqalar asosida vujudga keladi. Bu aloqalarni rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining ahamiyati juda katta, chunki o'yinda o'quvchi-talaba erkin harakatlanadi, o'z fikrini bildiradi, muammoni yechishda bahs-munozaraga kirishadi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga



yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir. L.S.Vigotskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. A.N.Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi. Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- ✓ maftunkorlik;
- ✓ kommunikativlik;
- ✓ o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- ✓ davolovchilik;
- ✓ tashxis;
- ✓ millatlararo muloqot;
- ✓ ijtimoiylashuv.

Kasbiy-pedagogik axloqni shakllantirishda o'yin texnologiyalarining vazifalarini keltiramiz:

- ✓ O'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- ✓ O'quvchining o'z iqtidori, qiziqish, bilimi o'zligini namoyon etishga imkon beradi;
- ✓ O'quvchining ijobiy fazilatlari shaklanishiga zamin yaratadi;
- ✓ Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini tartib topdirishda yordam beradi.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbir) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyli bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga - "ijod maydoni"ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi.



O'yinning didaktik maqsadi - bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi - mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar - diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yin- munozaralar muayyan muammo bo'yicha bahslar tashkil etilishini ko'zda tutadi. Bahs muammoni muhokama qilish jarayonidir. Uning usuli esa guruh bo'lib tadqiq qilishdir. Unda har bir ishtirokchi hamsuhbati (raqibi)ning fikrini asoslash, uni inkor etish orqali haqiqatni tiklashda o'z monopoliyasini o'rnatadi.

Bahs munozara borishining turli variantlari mavjud:

Evristik yondashuvda tomonlardan biri muammoning yechimi bo'yicha o'zining yondashuvini qabul qilishga urinmasdan ishtirokchilarning yechimni qabul qilishga urinishi, ichki tuyg'u, sog'lom aqldan foydalangan holda bahs ishtirokchilarini o'zining nuqtai nazariga og'dirib oladi.

Mantiqiy yondashuvdagi bahsga o'ta mustahkam mantiqiy tahlil va dalil— isbotlar xarakterli bo'lib, uning vositasida ishtirokchilar yakuniy xulosalarga keladilar.

So'fiyona yondashuv. Unda tomonlardan biri o'z raqibini donolik qilib mag'lub qilishi ham mumkin.

Avtoritar yondashuv. Unda tomonlardan biri o'zining obro'sidan foydalanib, o'z nuqtai nazarini o'kazishi mumkin.

Tanqidiy yondashuv. Bahs ishtirokchilaridan ba'zilari o'z raqibining faqat kamchiligi, kuchsiz o'rni va mavqeiga diqqatni jalb qiladi va, aksincha, raqibining fikridagi ijobiy unsurlarni ko'rishga intilmaydi va muammoning yechimi bo'yicha o'z takliflarini ham bera olmaydi.

Dogmatik yondashuv. Unda tomonlardan biri bahsni haqiqatni o'z manfaati uchun o'zining shaxsiy maqsadlariga muvofiq keladigan tomonga boshlab ketadi.

Pragmatik yondashuv. Ishtirok etuvchilardan biri va har bir tomon faqatgina haqiqatni o'rnatish uchun bahs yuritmaydi, balki undan o'zlarining yashirin va bahs ishtirokchilariga ma'lum bo'lmagan amaliy manfaatlariga burish uchun foydalanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'qituvchilar o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini faollashtirish va qiziqarli qilish uchun o'quvchilarga ilg'or tajribalarni tadbiq etishi, ta'limni o'zlashtirish va ko'p tomondan o'rganish uchun yangi usullar va vositalar qo'llashlari mumkin. Bunda, o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish va interfaol ta'lim muhitini yaratish samarali bilim olishni oshirishga yordam beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" 1993y.
2. Kaykovus "Kobusnoma" T.O'qituvchi.1991 y.
3. Azizxodjayeva H.H. Pedagogik texnologiyalar va o'qituvchilar malakasini oshirish. Tashkent, 2000.
4. Janbayeva M.S.,Tugizbayeva L. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/368>
5. Ernazarova, G. O., Qaynarova, I. V. (2021). Zamonaviy dasturlashtirilgan o'qitishni qo'llash. Zamonaviy ta'lim va tarbiya, 1(1), 75-81.
6. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2021). Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1492-1496.
7. Janbayeva, M. S., & Qorayev, S. B. (2021). Modern principles of organization of extracurricular activities in primary schools. *Экономика и социум*, (5-2), 837-843.
8. Smatillayevna, J. M., Hilola, R., & Mannona, M. (2023). Organization and management of the education process at the school based on the cluster approach. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 20(8), 66-68.
9. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2022). Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarida interfaol metodlarni samarali qo'llashning o'ziga hos jixatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 1079-1085.
10. Janbayeva, M. S., & Qorayev, S. B. (2021). Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari. *Экономика и социум*, (5-2 (84)), 837-843.
11. Oblaqulovna, E. G., Zarifamukaddamovna, K., & Valievna, Q. I. (2021). The importance of developing innovative methods in the educational system. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(05), 833-838.
12. Астанова, Г. А. (2022). Миср ҳикоятларида шарқона менталитет. *Международный журнал искусство слова*, 5(5).
13. Astanova, G. A. (2020). A masterpiece of Arabian tales and world literature. *Theoretical & Applied Science*, (3), 352-356.
14. Ibragimovna, T. G., Aminovna, A. G., Kadirovna, R. N., & Yusupovna, K. M. (2019). Artistic Expressions of a Situational Pragmatic System. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3), 4591-4593.
15. Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 533-537.
16. Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.



17. Ernazarova, G. O., Mukaddamovna, K. Z., Valievna, Q. I., & Bolatbekovich, K. A. (2022). The Need To Study Pedagogical Professional Thinking. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 5, 95-98.

18. Smatillayevna, J. M., & Serkebayevna, T. L. (2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. *journal of science, research and teaching*, 2(12), 105-108.

19. Smatillayevna, J. M. (2023). Sport menejerining boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlantirish. *journal of science, research and teaching*, 2(12), 102-104.

20. Smatillayevna, J. M. (2023). Ta'lim jarayonida ijodkor va novator o'qituvchilarning o'rni. *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(24), 156-159.